

Erta bolalik davrida (0–3 yosh) yashirin intellektual salohiyatni aniqlashning pedagogik va psixologik yondashuvlari

Xudoyberdiyev Ural Boqiyevich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
ural.xudoyberdiyev@icloud.com

ARTICLE INFO

ARTICLE HISTORY:

Received: 10.04.2025

Revised: 11.04.2025

Accepted: 13.04.2025

KEYWORDS:

Erta bolalik
rivojlanishi, Kognitiv
qobiliyatlar, Vizual
xotira, Multilingual
ta'lim, Rag'bat va jazo
muvozanati, Masaru
Ibuka, 3 yoshgacha
tarbiya

ABSTRACT:

Ushbu maqolada bolalarning erta rivojlanishining asosiy jihatlari, jumladan, kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish, o'qitish usullari va uch yoshgacha bo'lgan tarbiyaning psixologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Masaru Ibuki tadqiqotlari va yapon o'qituvchisi Masato Naga-Tani amaliy tajribasi asosida xotirani, ko'p qiymatli o'rganishni va muvozanatli motivatsiya tizimini rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Vizual idrok va bolaning o'rganishga tabiiy qiziqishiga alohida e'tibor beriladi. Maqolada ta'kidlanganidek, boshlang'ich yillar bola salohiyatini ochish uchun muhim davr hisoblanadi va ota-onalar va o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kirish

Har bir bola – noyob potentsial va cheksiz imkoniyatlar bilan tug'iladi. Ammo bu imkoniyatlarni qanday ochish va rivojlantirish butunlay kattalarning qo'lida. Zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaning ruhiy, intellektual va ijtimoiy salohiyatining asosiy qismi hayotining dastlabki uch yilida shakllanadi.

Bugungi kunda ko'p ota-onalar bolalar tarbiyasini "hali erta" deb hisoblashadi, maktab yoshigacha tarbiya masalasini keyinga qoldiradilar. Biroq, yapon olimi Masaru Ibukaning

"Uchdan keyin kech" asari va boshqa ilmiy ishlar shuni isbotladiki, aynan go'daklik va erta bolalik davri inson shaxsiyatining eng sezgir va qabul qiluvchan davri hisoblanadi.

Ushbu maqolada biz quyidagi muhim masalalarni yoritamiz:

- Bolaning erta yoshdagi psixologik va kognitiv rivojlanishining ahamiyati
- Vizual xotirani rivojlantirishning samarali usullari
- Ko'p tillarni o'rganishning ilmiy asoslari
- Bolalarni rag'batlantirish va jazolashning to'g'ri muvozanati

Maqolada yaponiyalik "tajovuzkor ota" Masao Nagatani va boshqa taniqli mutaxassislarining amaliy tajribalari, shuningdek, bolalarning tabiiy qiziqishlarini qanday qo'llab-quvvatlash kerakligi haqida qimmatli tavsiyalar keltirilgan.

Har bir bola – kelajakdagi dahodir va bizning vazifamiz uning salohiyatini to'liq ochib berishga yordam qilishdir.

1.Uchdan keyin kech: Erta bolalikda tarbiya va intellektual salohiyat

Bolalarning rivojlanishida dastlabki uch yilning ahamiyati haqida gap ketganda, ko'pchilik ota-onalar "hali erta" degan fikrga amal qiladi. Biroq, zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan shu davr – go'daklikdan uch yoshgacha bo'lgan oraliq – inson hayotidagi eng sezgir va shakllanuvchan davr hisoblanadi. Yapon pedagogi Masaru Ibukaning "Uchdan keyin kech" asari hamda boshqa ilmiy ishlar tasdiqlaydiki, bolaning kelajakdagi intellektual salohiyati, ijodiy qobiliyatlari va hatto ijtimoiy munosabatlari aynan shu kritik davrda shakllanadi.

Bugungi kunda bolalar tarbiyasida ikkita asosiy muammo kuzatilmoqda: bir tomondan, ota-onalar bolalarga "yetarli darajada" ma'lumot bermayotganliklaridan xavotirda, ikkinchi tomondan esa ular bolalarni haddan tashqari ko'p narsalar bilan band qilib qo'yishadi. Aslida esa, muhim jihat – bu bolaning tabiiy qiziqishlarini to'g'ri aniqlash va ularni samarali yo'naltirishdir.

1.1 Erta bolalikdagi ta'sirlar va bolaning dastlabki rivojlanishi

Siz qabul qilasizmi yoki yo'q, ammo farzandingizning bugungi kundagi sizga, atrofdagilariga qilayotgan munosabati, muomalasi, o'zini tutishi va hattoki atrofidagi axborotlarni qanday o'zlashtirishida ham sizning ta'siringiz juda katta. Hammamiz bilamizki, o'smir bolalarda qarshiliklar, isyonlar ko'p kuzatiladi. Bu yoshdagi bolaga ta'sir o'tkazish ancha murakkab. Chunki ular allaqachon shu zaylda shakllanib bo'lgan. Bolaga hattoki bog'cha davrida ham ta'sir o'tkazish kech bo'ladi. Olimlarning tajribalari natijasi shuni ko'rsatadiki, bolaga ta'sir ko'rsatishni go'dakligidanoq boshlash zarur. Chaqaloqning rivijlanmaganligi uning eng katta imkoniyatlari kalitidir. Bu davrda bola qalbi ham, zehni ham oppoq qor kabi bo'ladi va biz unga nima tekkazsak, o'shanigina ko'ra olamiz.

1.2 Uch Yoshgacha Bo'lgan Davrning Psixologik Ahamiyati

Bola kelajagini hal qiluvchi eng muhim davr uning uch yoshgacha bo'lgan davri hisoblanadi. Bu davrda bolaning intellektual va ruhiy salohiyati shakllanadi, shuningdek, ularning ijtimoiy muhitda qanday rivojlanishi ko'rsatiladi. Bolaning kelajakda kim va qanday inson bo'lib yetishishi sizning bu davrda qilgan xatti-harakatlaringizga, unga bo'lgan munosabatingizga bog'liq. Har bir bolaning tug'ilish holati deyerli bir xil bo'ladi. Hech bir go'dak o'tkir zehni yoki ahmoq bo'lib tug'ilmaydi. Uning o'tkir zehni yoki qoloq bo'lib yetishishi tarbiyachisi yoki ota-onasining qo'lida. Barchasi bizning o'rgatish uslubimizga bog'liq. Bu borada Masaru Ibuka o'zining "Uchdan keyin kech" kitobida juda o'rinli namuna keltirgan : "Qanchalik zotdor bo'lmasin, kuchuk bolasini daydi laycha kuchuklar orasiga qo'shsak, u vaqti kelib yaxshiyashadi, daydi kuchuklar hayotiga o'zini moslashtiradi"⁸. Go'daklar ham xuddi shunday, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak oila davrasida ulg'aygan chaqaloq kelajakda atrofdagilari kabi bo'lib yetishadi. Aksincha, buzuv hayollar bilan band, vulgarizmlardan, ya'ni qo'pol va haqoratomiz so'zlardan uzluksiz foydalanuvchi oila davrasida ulg'aygan bola ham xuddi shu zaylda voyaga yetadi.

1.3 Tadqiqotchi Kichkintoy: Bolaning Yangi Ko'nikmalarni O'rganishi

⁸ Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" kitobidan, 23-sahifa.

Bola doimo rostgo'y bo'ladi. Bundan tashqari, bolalar biror mashg'ulotga qiziqsagina uni bajaradi. Ayniqsa, uch yoshgacha bo'lgan bolalar har bir daqiqada o'zlari uchun yangi hayotiy ko'nikma hosil qiladi. Go'dak har bir xatti-harakati orqali yangi ma'lumotga ega bo'ladi. Bunga hatto bolaning ota-onasining, aka-opalarining hujjatlari, daftar-kitoblariga chizib, ularni yirtib tashlashlarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. "Bu orqali bola nimani o'rganishi mumkin?", degan savolni berishingiz tabiiy. Bola bu davrda izlanish olib boradi. Oddiygina qog'ozga chizishni o'rganish uchun bola kattalarning o'sha buyumdan qanday foydalanayotganliklarini diqqat bilan kuzatadi, o'rganadi va hosil bo'lgan ko'nikmani amaliyotda sinab ko'rishga qaror qiladi. Sinov davri mobaynida esa bolada kamida to'rtta yangi ko'nikma hosil bo'ladi. Birinchi navbatda, u qo'lidagi buyum, ya'ni ruchka yoki qalamning o'zidan iz qoldirishini, keyin esa qaysi tarafi qog'ozga tekkazilganda iz, ya'ni chiziqlar hosil bo'lishini o'rganadi. Bundan tashqari, ruchkani qaysi tarafga harakatlantirsa o'sha tarafda iz hosil bo'layotganligining guvohi bo'ladi. Qog'ozni ushlaganda undan qanday ovoz chiqishi va yirtilganda qanday ovoz chiqarishini tadqiq qiladi. Bu holatlar biz uchun oddiy tuyilishi mumkin, ammo yangi izlanuvchi uchun bu juda o'ziga xos va qiziqarli davr. Aynan bu davrda yuzaga kelayotgan arimas zararlar tufayli bolani bu kabi tadqiqot, izlanishlardan cheklab qo'yish dunyoda yangi tadqiqotchi olimning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilish bilan barobar.

2. Bolalarning kognitiv qobiliyatlari va ularni rivojlantirish usullari

Bolalarning aqliy va hissiy rivojlanishida erta yoshdagi tajribalarning ahamiyati qanchalik katta? Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar hayotining dastlabki yillari ularning kelajakdagi intellektual, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bolaning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatida vizual xotira, til o'rganish qobiliyati va motivatsiya kabi jihatlar qanday namoyon bo'ladi? Ushbu maqolada biz bolalarning yashirin imkoniyatlarini qanday aniqlash va ularni samarali rivojlantirish usullarini tahlil qilamiz.

2.1 Vizual xotirani rivojlantirish

Bolalarda shakllar orqali eslab qolish qobiliyati mavjud. Bolaga o'zi qiziqadigan va sevib tomosha qiladigan multfilm yoki telekanalning logotipi ko'rsatilsa, bola o'qishni bilmasa-da, o'sha logotip shakli, ranglari va ko'rinishi orqali uning qaysi multfilm yoki telekanal ekanini qiynalmay ayta oladi. Bu ham bolaning eng muhim yashirin imkoniyatlaridan biridir.

Masaru Ibukaning fikriga ko'ra: "Har bir sog'lom bolada bir daxo yashirin. Bola hatto Baxning musiqasini ham baxolay oladi"⁹. Bu fikr qanchalik to'g'ri? Bolaning musiqa ritmiga ko'ra harakatlanishi, ritm tezlashganda tez harakat qilishi va sekinlashganda nozik, sokin harakatlarni bajarishi bolaning musiqani baxolay olishiga yaqqol misol bo'la oladi. Bolalarning xotirasi juda yaxshi bo'ladi. Muloqot qilishni boshlagan bolaga biror hikoyani qayta-qayta o'qib berilsa va boladan uni qaytarib aytishi so'ralsa, bola deyarli adashmasdan o'sha ertak yoki hikoyani so'zlab beradi. Bu borada rasmlari kitoblardan foydalanish bola xotirasining yanada rivojlanishiga juda katta yordam beradi. U rasmlarni kuzatish va tahlil qilish orqali unutilgan voqealarni ham qayta eslashiga ko'mak beradi. Hozirgi kunda nashr qilinayotgan yozuvsiz, faqatgina rasmlardan iborat zamonaviy ertak kitoblar boladagi kreativlikni oshirishga katta hissa qo'shadi. Agar bola uchun bu kabi kitoblardan foydalanilsa, bolaning kichik bo'lishiga qaramasdan o'zi mustaqil ravishda yangi hikoya yarata olishining guvohi bo'lamiz. Bu hikoyalar har safar qayta takrorlanganda ertakning tamoman yangi ko'rinish kasb etib borishini, har safarida yangi o'zgarishlar, yangi qahramonlar paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida bolaning fikrlash doirasi kengayishiga qo'shimcha ko'makdir.

2.2 O'rgatishdan to'xtamang

Biz bolalarga ko'p ma'lumot berib qo'yayotganimizdan emas, aksincha, ularga yetarlicha ma'lumot yetkazib bera olmayotganimizdan xavotirlanishimiz kerak. Bunga

² Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech" kitobidan, 34-sahifa.

misol qilib, yaponiyalik o'qituvchi va "tajovuzkor ota" nomini olgan Masao Nagatani ko'rsatishimiz mumkin. U o'g'li ikki yarim yosh va qizi uch oylik vaqtida ishdan bo'shaydi va farzandlari tarbiyasini o'z qo'lga oladi. Nagata farzandlariga bir vaqtning o'zida beshta tilni o'rgatishga muvaffaq bo'ladi. O'sha vaqtlarda u gazeta va jurnallarda "tajovuzkor va qattiqqo'l ota" nomini oldi. Ammo hozirda uning ikki farzandi ham o'z yurtida besh til (ispan, nemis, fransuz, ingliz, italian) bo'yicha eng zo'r mutaxassislardan hisoblanadi. Farzandlarini bu darajaga yetkazish uchun esa Nagataning qo'lida chet tillarida yozilgan kitoblar va chet tillarida olib boriladigan radio eshittirishlaridan boshqa hech narsa bo'lmagan. Shu hayotiy misoldan kelib chiqqan holda "bolaga hech qachon o'rgatishdan to'xtash kerak emas" degan xulosaga kelishimiz kerak.

Bola uch yoshgacha faqat o'rganish bilan band bo'ladi. Undan keyin esa o'zida hosil bo'lgan ko'nikmalardan qanday foydalanish kerakligi haqida fikr yurita boshlaydi. Bu vaqt davomida esa Bolani o'z-o'ziga qo'yib berish kerak. Meyoridan ortiq asossiz cheklovlar bolani yolg'on gapirishga undaydi. Bola o'z chegaralarini, shaxsiyatini himoyalash uchun o'ziga yolg'onni qalqon qiladi. Qaysarlik bilan biror narsani bilishni yoki biror ishni qilishni istagan bolada o'sha ishga bo'lgan qiziqishning uyg'onganidan dalolat. Bu vaqtda esa otana farzandiga yo'l-yo'riq ko'rsatgan holda nazoratda o'sha ishni bajarishiga imkon yaratib berishi lozim. Hattoki oqibati yaxshilik bilan tugamasa-da. Bola bu holatdan ham o'zida yangi ko'nikma hosil qiladi. U bu ishni qilishning oqibati yaxshilik bilan tugamaganligi haqida fikr yuritadi va qayta o'sha xatosini takrorlamasligi, aks holda o'ziga Zarar keltirishi mumkinligini tushunib yetadi.

Bolaga qattiqqo'llik orqali biror narsani o'rgatish imkonsiz. Qattiqqo'llik bolaning ilk yillarida bo'lishi kerak. Aks holda bu boladagi qobiliyatning so'nishiga va bolada qaysarlik va qarshilik ko'rsatishning kuchayishiga olib keladi. Bolaga biror narsani o'rgata olmayotganingiz bu- siz tanlagan metod unga mos kelmaganligidan dalolat beradi. Barchasi

o'qitish uslubingizga bog'liq. Siz shunday metod tanlashingiz kerakki, o'sha ma'lumotni bola o'zi o'rganishga intilishi, sizning tanlagan usulingiz unda qiziqish uyg'ota olishi lozim.

2.3 Bolalarni motivatsiyalashning eng samarali usullari: Rag'bat va jazo muvozanati

O'rgatish davomida bolaga rag'batlantirishni ham, jazoni ham bir me'yorda olib borishingiz shart. "Rag'bat bolaga nisbatan ishonch, mehr, maqto'v, hamdardlik va e'tiborli bo'lish kabi hollarda namoyon bo'lib, bola xulqini boshqarishda eng kuchli vosita hisoblanadi"¹⁰. Maqto'v me'yoridan oshmasligi shart. Agar bir bolani uzluksiz maqtalsa, u bunga o'rganib qoladi va maqto'vni yanada ko'proq, doimiy talab qilishni boshlaydi. Bu esa bolada xudbinlik hissining ortib ketishiga sabab bo'ladi. Marjona To'xtayeva o'z maqolasida aytib o'tganidek: "Me'yordan oshgan rag'bat bola tarbiyasiga qanchalik ta'sir qilsa, me'yoriga yetmagan jazo ham shunchalik ahamiyatlidir"¹¹. Uch yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasidagi jazo turlaridan eng yengili bolaning xulqini tanqid qilish. Eng og'irlari va bolaning psixologiyasiga kuchli ta'sir etuvchilari esa muomala, imo-ishora orqali ta'sir etish va imtiyoz va mukofotlarni man qilishdir. Jazo bilan bir qatorda rag'bat bir-biriga mutanosib tarzda olib borilgan bola tarbiya taraflama ham, ta'lim taraflama ham ko'p yutuqlarga erisha oladi. Ma'rifatparvar shoir Abay aytganidek: "Bola onadan tug'ilganda ikki odat bilan tug'iladi. Biri: yesam, ichsam, uxlasam demoqlikdir, albatta; shuningdek, bular tanning sihat- salomatligi uchun zarur hamdir; bular bo'lmasa- tanda jon ham bo'lmaydi. Ikkinchisi: ko'rsam, bilsam demoqlikdir. Bola yoshligida nimani ko'rsa, shunga talpinadi, yalt-yult etib qaraydi, ko'rgan narsasini qo'li bilan ushlab, yuzi-ko'ziga yaqin olib borib suykagisi, og'ziga solib tishlagisi keladi. "U nima?", "Bu nima?", "U nega unday qildi?", "Bu nega bunday qildi?" deb ko'zi ko'rgan, qulog'i eshitgan narsalarni so'raydigan

¹⁰ "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 06/2021 ISSN20107919 nashr, Marjona to'xtayeva NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.

¹¹ "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 06/2021 ISSN20107919 nashr, Marjona to'xtayeva NavDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

bo'ladi- hech tin topmaydi. Bularning hammasi ko'rsam ekan, bilsam ekan, o'rgansam ekan, degan tabiiy qiziqish alomatidir, albatta"¹². Daholarni yetishtirish uchun esa ota-ona va tarbiyachilardan talab qilinadigani- har bir o'zgarishga va qiziqishlarga diqqat qilib, ortiqcha cheklovlarisiz to'g'ri yo'naltirish lozim.

Xulosa

Ushbu maqola, bolaning erta yoshdagi rivojlanishining muhimligini ta'kidlab, bu davrda ota-onalar va pedagoglarning roli naqadar katta ekanligini ko'rsatib berdi. Uch yoshgacha bo'lgan davrda bolalar shaxsiy va kognitiv rivojlanishning dastlabki bosqichlarini boshlaydi, bu esa ularning kelajakdagi salohiyatini belgilaydi. Vizual xotira va ko'p tilli o'rganish kabi aspektlar, bolalarning yoshiga mos ravishda rivojlantirilishi lozim. Rag'bat va jazo muvozanatining o'rnatilishi, bola tarbiyasining samarali usullari bo'lib, ota-onalar va pedagoglar uchun muhim yo'riqnomalarni taqdim etadi. Natijada, erta bolalikda to'g'ri pedagogik yondashuv, bolaning ruhiy va kognitiv rivojlanishida mustahkam asos yaratadi va uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun tayyorlov jarayonini boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibuka, M. (1971). Uchdan keyin kech. Tōkyō: PHP Publications.
2. Nagatani, M. (2005). *Polyglot bolalar tarbiyasi: Tajribalar va metodlar*. Tokyo: Asahi Press. Tōkyō: Nihon Keizai Shinbunsha.
3. To'xtayeva, M. (2019). Toshkent: Ma'naviyat. "Me'yor va rag'bat" Maqola. O'zbekiston ta'limi.
4. Abay Qo'nonboyev. (1890). Shaxsiyat va tarbiya. Almaty: O'zbekistan Matbuoti.
5. Suzuki, S. (1983). *Nurtured by Love*. New York: HarperCollins.
7. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.

¹² Abay "Nasihatlar" kitobidan, "Yettinchi so'z".

-
-
8. Montessori, M. (1912). **The Montessori Method**. New York: Frederick Stokes.
 9. Doman, G. (1964). **How to Teach Your Baby to Read**. Philadelphia: The Better Baby Press.
 10. Piaget, J. (1952). **The Origins of Intelligence in Children**. New York: Norton.

